

Transport harakati va undan foydalanishga qarshi jinoyatlar tavsifi va uning muhim jihatlari

Kriminologiya tadqiqot instituti
mustaqil izlanuvchisi
Niyazmetov Ikram Masharipovich

Annotasiya: Maqolada transport harakatining tushunchalari, undan foydalanishda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan holatlarning dunyo statistikasi hamda uning tahlillari asosida olimlarning fikr mulohazalari o'rganilganligi, jinoyatning kriminalistika nuqtai-nazaridan tavsiflanishining muhim jihatlari ifodalangan.

Kalit so'zlar: transport, xavfsizlik, xavf, avariya, yo'l-transport hodisasi, transport infratuzilmasi, transport vositasi, jinoyat sub'ekti, zarar.

Dunyoda har yili yo'l-transport hodisalari (keyingi o'rinlarda YTH) oqibatida 1,3 million odam vafot etmoqda. Natijada har 24 soniyada insonlar safidan bir kishi kamaymoqda. Bir qator mamlakatlarda YTH natijasida o'lim holatlari aholi sonining qisqarishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan yuritiladigan va har 3-5 yilda bir marta e'lon qilinadigan "Dunyoda yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha hisobot" ("Global Status Report on Road Safety")ga ko'ra, joriy yilda dunyo bo'yicha har 100.000 nafar aholiga nisbatan YTH oqibatida vafot etganlar nisbati 17 nafar shaxsni tashkil qilmoqda¹. Transportdan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar — bu jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan transport vositalari va ularning infratuzilmasi bilan bog'liq xavfsizlik qoidalarini buzish orqali jamiyat, inson hayoti va mulkiga jiddiy tahdid soluvchi qilmishlardir. Bunday jinoyatlar nafaqat moddiy zarar etkazadi, balki insonning hayoti va sog'lig'iga xavf tug'diradi, shuningdek davlatning transport tizimidagi barqarorlik va xavfsizlikni izdan chiqaradi.

Zotan, yo'l harakati xavfsizligi davlatimizda eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. YTH jamiyat va davlatga juda katta iqtisodiy, demografik va ijtimoiy zarar keltiradi. Respublikamizda 2021-2022 yillarda transport vositalari harakati yoki

¹ <https://nonews.co/directory/lists/countries/mortality-road-traffic> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 24.10.2023 й.)

ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlari jami sodir etilgan jinoyatlarning 2 foizini tashkil qilgani² ham fikrimizni tasdiqlab turibdi.

Jinoiy-huquqiy jihatdan bu toifadagi jinoyatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan tartibga solinadi. Ular orasida temir yo'l, havo, suv va avtomobil transportlarida harakat xavfsizligi qoidalarini buzish, transport vositalarini noqonuniy egallash, transport infratuzilmasiga zarar etkazish yoki faoliyatini izdan chiqarish kabi qilmishlar mavjud. Bu jinoyatlar jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar qatoriga kiradi, chunki ular ommaviy halokat va katta moddiy zararga olib kelishi mumkin.

Transport xavfsizligiga qarshi jinoyatlar sub'ekti — bu transport vositasini boshqarishga yoki xavfsizlikni ta'minlashga mas'ul shaxslar, ayrim hollarda esa har qanday shaxs bo'lishi mumkin. Jinoyatning ob'ektiv tomoni harakat xavfsizligi qoidalarini buzish yoki transport tizimining ishlashiga to'sqinlik qilish bilan ifodalanadi.

Bu jinoyatlarning jinoiy-huquqiy tavsifi ularning ijtimoiy xavf darajasi, oqibatlari va jinoyat sub'ektining aybi bilan belgilanadi. Agar jinoyat natijasida odam halok bo'lsa yoki og'ir oqibatlar yuz bersa, javobgarlik yanada og'irlashadi.

SHu bilan birga, transport xavfsizligiga qarshi jinoyatlar profilaktikasi davlat siyosatida muhim o'rin tutadi. CHunki transport tizimi — iqtisodiyot, mudofaa va jamoat xavfsizligi uchun strategik ahamiyatga ega sohadir. SHu sababli, bunday jinoyatlarni oldini olish va ular uchun javobgarlikni kuchaytirish nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega.

Garchi transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlarini tergov qilishda ularning kriminalistik tavsifi muhim sanalsada, tadqiqot davomida o'tkazilgan tahlillar bugungi kunda sud-tergov amaliyotida xizmat qilayotgan surishtiruvchi va tergovchilarning aksariyat qismi "kriminalistik tavsif" nima ekanligini to'liq anglab etmasligini ko'rsatmoqda.

Shuning uchun dastlab kriminalistik tavsif tushunchasini, unga olimlar tomonidan berilgan ta'riflarni yoritib o'tish maqsadga muvofiq deb topdik. Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi har doim olimlarning diqqat markazida bo'lganligi uchun bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Biroq, olimlar orasida xali-xanuzgacha

² <https://yhxx.uz/uz/statistics/> (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 24.10.2023 й.)

kriminalistik tavsif deganda nimani tushunish lozimligi yuzasidan yagona to'xtam yo'q.

Jumladan, A.Yu. Golovin "kriminalistik tavsif jinoyatning axborot modeli bo'lib, uni sodir etish mexanizmining tipik qonuniyatlarini aks ettiradi" deb ta'kidlaydi³.

G'.A. Abdumajidov jinoyatlarning kriminalistik tavsifiga "ko'rib chiqilayotgan jinoyat turlarining eng muhim tomonlari to'g'risidagi umumlashtirilgan daliliy ma'lumotlar hamda ularga asoslangan ilmiy xulosalar va tavsiyalar tizimi"⁴ deb ta'rif bergan.

T.B.Mamatqulov va bir guruh olimlar fikricha jinoyatlarning kriminalistik tavsifi tur, guruh va alohida jinoyatni sodir etish usuli, mexanizmi va o'ziga xos sharoiti kabi kriminalistik ahamiyatga ega alomatlarida, o'z aksini topgan hamda jinoyat sub'ektining shaxsi va boshqa holatlar, muayyan jinoiy harakat va nihoyat jinoyatlarni ochish, tergov qilish va oldini olish bilan bog'liq vazifalarni muvaffaqiyatli tarzda hal qilishni ta'minlash tushuniladi⁵.

Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlarining kriminalistik tavsifi bu ushbu toifadagi jinoyatlarni tez va to'la ochish, jinoyat sodir etgan haqiqiy aybdorlarni fosh etish, jinoyatning sababi va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish uchun ahamiyatli bo'lgan jinoyatni sodir etish motivi, vaqti va joylari, jinoyatni sodir etgan va jabrlangan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar tizimidir.

Sodir etilgan yo'l-transport hodisasini to'g'ri baholash ko'rib chiqilayotgan tizimning qaysi bo'g'inida va aynan kim tomonidan yo'l harakati yoki transport vositasidan foydalanish qoidalari buzilganligiga bog'liq.

Ushbu tizimdagi muhit deganda biz atrof-muhitning yo'l harakati xavfsizligiga mujassamlashgan ta'sirini tushunishimiz lozim. U quyidagi omillardan tashkil topadi: ob-havo (metrologik ko'rinish, yog'ingarchilik, shamol, harorat); tabiiy landshaft (tekislik, qir-adirlar, tog'lik, er osti-usti suvlari va h.k.); mexanik (shovqin, chang, tebranish, gaz chiqindilari bilan ifloslanganlik va h.k.)⁶.

³Головин А.Ю. Роль криминалистической характеристики преступления в структуре частной криминалистической методики //Актуальные проблемы современной юридической науки и практики: Материалы Междунар. научно-практич. конф. Ростов-на-Дону: ДЮИ, 2013. – С. 91.

⁴ Abdumajidov, G'. A. Kriminalistika: Darslik. - T., 2003. - B. 219

⁵ Mamatqulov, T. B. Kriminalistika: Darslik/ O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. - 384-b

⁶ https://uza.uz/uz/posts/jarima-ballari-maqсад-zharima-emas-yol-transport-hodisalarining-oldini-olish-bolishi-lozim_543000 (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 21.12.2022).

“Haydovchi” tomonidan yo‘l harakati yoki transport vositasidan foydalanish qoidalarini buzilishini sabablari ob’ektiv va sub’ektiv hususiyatga ega.

Ob’ektiv sabablarga har qanday tashqi sharoitlar, ya’ni haydovchining odatdagi haydash texnikasini o‘zgartirishi, to‘qnashuv, haydovchi tomonidan to‘qnashuv va boshqa xavfli oqibatlariga yo‘l qo‘ymaslik uchun belgilangan yo‘l harakati qoidalarini buzishga majbur bo‘lishi kabilar kiradi.

Subektiv sabablarga esa, zaruratdan kelib chiqmagan holda yo‘l harakati qoidalarini qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasidan buzishi, haydovchining kasbiy tayyorgarligi etarli emasligi, yo‘l harakati holatini noto‘g‘ri baholashi yoki tajriba etishmasligi tufayli transport vositasini noto‘g‘ri boshqarish texnikasidan foydalanishi, haydovchining ishlashi va reaksiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan psixofizik o‘zgarishlar, ya’ni haddan tashqari charchash, spirtli ichimliklar iste’mol qilish, kasallik va boshqalar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Golovin A.YU. Rol kriminalisticheskoy xarakteristiki prestupleniya v strukture chastnoy kriminalisticheskoy metodiki //Aktualnye problemy sovremennoy yuridicheskoy nauki i praktiki: Materialy Mejdunar. nauchno-praktich. konf. Rostov-na-Donu: DYUI, 2013. – C. 91.
2. Abdumajidov.G‘.A. Kriminalistika:Darslik.-T.,2003.-B.219
3. Mamatqulov.T.B Kriminalistika:Darslik/ O‘zbekiston Respublikasi IIV Akad, 2021.- 384-b
4. https://uza.uz/uz/posts/jarima-ballari-maqsad-zharima-emas-yol-transport-hodisalarining-oldini-olish-bolishi-lozim_543000(Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 21.12.2022).
5. <https://nonews.co/directory/lists/countries/mortality>
6. <https://yhxx.uz/uz/statistics>